

## ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA EKOLOGIK NAZORAT

*Toshkent viloyati yuridik texnikumi o`quvchisi  
Abdusattarova Feruza Shokirjonovna*

**Annotatsiya:** maqolada ekologiya bilan bog`liq masalalar, atrof-muhitni muhofaza qilishda ekologik nazoratning ahamiyati ayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** ekologiya, atrof-muhit, ekologik nazorat.

Insoniyat davrining barcha bosqichlarida tabiiy boyliklari, hayvonot va nabotot olami, ya’ni ekologiya inson hayotiy faoliyati uchun zarur ehtiyoj manbai bo‘lib kelgan. Lekin texnika va texnologiya, sanoat yuqori darajada rivojlangan XXI asrda ekologiya, bioxilma-xillikni asrash, tabiatni muhofaza qilish bilan bog`liq muammolar bir mintqa yoki bir mamlakatgagina emas, balki barcha qit’alarga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

**Bugungi kunda dunyo hamjamiyatini ekologiya bilan bog`liq masalalar, jumladan, tabiat ekotizimi yemirilishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, tabiiy muhitdagi global o`zgarishlarning atrof-muhit va aholi salomatligiga salbiy ta’siri tashvishga solib qelmoqda.** Insonlarning tabiatga ta’sir qilishi va buning aksi ta’siri o`laroq tabiatning insoniyatga ta’siri ham ortib bormoqda. Shu kabi muammolar ekologiya sohasini davlat siyosati darajasiga ko`tardi va davlat boshqaruvining alohida tizimi ya’ni ekologik boshqaruvni vujudga kelishiga sabab bo`ladi. Chunki, ekologiya sohasini davlat siyosati darajasiga ko`tarmaslik ko`plab iqtisodiy, siyosiy va boshqa jiddiy muammolarni keltirib chiqarishini **jahon hamjamiyati anglab yetdi.**

Ekologiya sohasida davlat nazoratining tushunchasiga to`xtaladigan bo`lsak, O`zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to`g`risida”gi qonunning 3-moddasida ekologik nazorat atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablari buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo`yishga, tabiatni muhofaza qilish faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va jamoatchilik chora-tadbirlari tizimi ekanligi belgilab qo`yilgan.

Ekologik nazorat ham o`z navbatida davlat ekologik nazorati, idoraviy ekologik nazorat, ishlab chiqarish ekologik nazorati, jamoatchilik ekologik nazorati kabi turlarini o`z ichiga oladi.

Xususan, “Ekologik ekspertiza to`g`risida”gi qonunning 1-moddasida ekologik ekspertiza deganda rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo`jalik va boshqa xil faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilash hamda ekologik ekspertiza obyektini ro`yobga chiqarish mumkinligini aniqlash tushunilishi belgilangan.

Yuqoridagi ikki huquqiy normadan anglash mumkinki, ekologik ekspertiza ekologik nazoratning amalga oshirish shakllaridan biri hisoblanadi. Mazkur asos O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi qonunning 20-moddasi 2-qismida quyidagilar belgilab qo`yilgan:

- davlat ekologik ekspertizasi davlat ekologik nazoratining shakli ekanligi;
- ekologik audit ishlab chiqarish ekologik nazoratining shakli ekanligi;
- jamoatchilik ekologik ekspertizasi jamoatchilik ekologik nazoratining shakli ekanligi.

Ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda ekologiyani asrash bo‘yicha ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimizning 2022-yil 2-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorni imzoladi. Bundan ko‘zlangan maqsad 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshiririlishi juda ahamiyatlidir.

Bu jarayonda, xususan, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish ko‘zda tutilgan. Shu bilan birga qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejash yuzasidan sa’y-harakat ko‘lamini yanada kengaytirishga e’tibor qaratilmoqda.

Qaror asosida belgilangan strategik maqsadlarga erishish uchun, birinchidan, 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash dasturi, ikkinchidan Sanoat tarmog‘ida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va energiya tejamkorligini ta’minlash bo‘yicha konsepsiya, uchinchidan 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlashga qaratilgan harakatlar rejasи tasdiqlandi.

Mamlakatimizda ekologoya sohasida bir qancha normativ-uquqiy hujjatlar qabul qilingan, jumлада:

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2017-yil 21-apreldagi PF-5024-sон Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 21-apreldagi PQ-2915-sон Qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida» 2019-yil 15-yanvardagi №29-sон Qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2018-yil 3-oktyabrdagi PQ-3956-son Qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2021 yil 30 dekabrdagi PQ-76-son qarori.

Xulosa qilib ta’kidlaydigan bo‘lsak, atrof-muhitni asrashni huquqiy jihatlari ishlab chiqilgan va amaliyotga ijrosi joriy etilgan.

Lekin ayrim insonlar va korxonalarning mas’uliyatsizligi ushbu normalarning ishlash samaradorligini oshirishga to‘sinqilik qilmoqda.

Tabiatni asraylik, keyingi avlod uchun toza va sof tayuiatni qoldiraylik.

#### Foydalanimanligi adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi 73-II son Qonun 2000-yil 25-may.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi 363-son Qonun 2013-yil 27-dekabr.
3. “Ilm, ma’rifat va raqamli Iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi 5953-son Farmon.